



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



Yashil

Barqarorlik uchun innovatsiyalar:

Yashil iqtisodiyodga o'tish davrida
biznes va tadbirkorlik bo'yicha



**2025 - yil
1-30-aprel**



**RESEARCH
AND GRANTS UPDATES**

**NAVBATDAN
TASHQARI SON**



<https://gsbe-research.uz/conferences-ups-uz>



conference@gsbe.uz



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 112 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavit Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavit Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Dunyo sug'urta bozorida yashil xizmatlarning taraqqiyot strategiyalari.....	7
Alimov Baxodir Batirovich	
Yashil iqtisodiyot sharoitida amaliy va nazariy treninglar orqali xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish.....	14
Marupov Kabil Komilovich	
O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili.....	20
Nurmetova Muyassar	
Econometric assessment of the impact of investments on the economic system of Surkhandarya region	29
Nurbek Khatamov	
Debt versus tax financing in infrastructure: impact on employment	37
Raxmatov Firdavs Feruz o'g'li, Kengesbaeva Gulfayruz Azamatovna	
Digital infrastructure and green energy in export diversification: evidence from post-soviet countries.....	47
Sadriddinov Ulugbek Jaloliddin ugli	
Jahon savdo tashkiloti doirasida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari: ko'p tomonlama savdo kelishuvlari tahlili	55
Toshpulatova Malika Ulug'bek qizi	
Развитие финтеха в узбекистане: современное состояние и международный контекст	63
Адилова Сакинахон	
Yashil iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash	68
Rasulova Dilfuza, Kaytarov Voxid	
Gibrid avtomobillar importida to'lovlar undirish amaliyotini takomillashtirish.....	80
Kaljanov Baxadir Dauletbaevich	
Стратегии корпоративного управления и привлечения иностранных инвестиций в условиях устойчивой экономики	88
Фарход Каракулов	
The impact of WTO accession on Uzbekistan's trade policy: in the case of Kazakhstan	102
Azimjonov Muhammadsoli Muhammadolim o'g'li	



JAHON SAVDO TASHKILOTI DOIRASIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: KO'P TOMONLAMA SAVDO KELISHUVLARI TAHLILI

Toshpulatova Malika Ulug'bek qizi

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0001-1382-7854

malikatoshpulatova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti [JST] doirasidagi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari o'rganilib, ko'p tomonlama savdo bitimlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlat sifatida O'zbekistonning jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi barqaror iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda O'zbekistonning JST va YeOIga a'zo bo'lgan davlatlar bilan so'nggi besh yil ichidagi savdo aloqalari, jumladan import va eksport holati tahlil qilinmoqda. Maqola JSTga a'zolikka erishish orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va global savdo dinamikasining murakkabliklarini hal etish bo'yicha takliflarni ilgari surmoqda.

Kalit so'zlar: JST, O'zbekiston, YeOI, iqtisodiy o'sish, eksport, import.

Abstract: This article examines Uzbekistan's economic development prospects within the framework of the World Trade Organization (WTO) and analyzes the impact of multilateral trade agreements on the national economy. As a country transitioning to a market economy, Uzbekistan's integration into the global trade system plays a significant role in ensuring sustainable economic growth. The study analyzes Uzbekistan's trade relations over the past five years with WTO and EAEU member countries, including the state of imports and exports. The article proposes recommendations to stimulate the country's economic development, enhance its competitiveness, and address the complexities of global trade dynamics through WTO accession.

Key words: WTO, Uzbekistan, EAEU, economic growth, export, import.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы экономического развития Узбекистана в рамках Всемирной торговой организации (ВТО), а также анализируется влияние многосторонних торговых соглашений на национальную экономику. Интеграция Узбекистана, как страны с переходной экономикой, в мировую торговую систему имеет важное значение для устойчивого экономического роста. В исследовании проанализированы торговые отношения Узбекистана с государствами-членами ВТО и ЕАЭС за последние пять лет, включая состояние импорта и экспорта. В статье предложены рекомендации по стимулированию экономического развития страны, повышению её конкурентоспособности и решению сложностей, связанных с динамикой глобальной торговли, через вступление в ВТО.

Ключевые слова: ВТО, Узбекистан, ЕАЭС, экономический рост, экспорт, импорт.

KIRISH

Ma'lumki, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) dunyo iqtisodiyotlari savdo tizimini muvofiqlashtiruvchi nufuzli xalqaro tashkilotdir. Hozirgi kunda JSTga 166 ta davlat a'zo bo'lib¹, ular global savdoning 98 foizini tashkil qiladi². JSTning asosiy vazifasi erkin va shaffof savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish, adolatli raqobatni rag'batlantirish va a'zo davlatlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashdir. JSTning bu vazifasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar maqsadiga to'laqonli mos keladi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun JSTga a'zo bo'lish savdo amaliyotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, jahon bozorlariga kengroq kirish imkoniyatini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1 https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm

2 https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm



Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. So'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va tashqi savdo muvozanatini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil yanvar-sentabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 48,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 mlrd AQSH dollariga yoki 7,7 % ga ko'pdir³. O'zbekiston JST ga a'zo bo'lish orqali xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashadi va bu jarayon eksportni rag'batlantirish, import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro savdo standartlariga moslashish va savdo to'siqlarini bartaraf etish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida JSTga a'zolik O'zbekistonga 166 davlat bilan teng huquqli asosda savdo qilish imkoniyatini beradi, bu esa mamlakatning jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlashida muhim rol o'ynaydi. Bu O'zbekiston uchun katta yutuqdir!

Ushbu maqolaning maqsadi – Jahon savdo tashkiloti doirasida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari baholash hamda ko'p tomonlama savdo kelishuvlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Mazkur tadqiqot orqali O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni va uning savdo-sotiq, investitsiya oqimlari, raqobatbardoshlik darajasi kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Savdo siyosatining samaradorligini o'rganishda JSTga a'zolikning iqtisodiy oqibatlarini empirik tahlil qilish global iqtisodiy adabiyotda alohida o'rin egallaydi. Mario Larch, Roberta Piermartini va Yotov (2019)⁴ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda GATT/JST a'zoligining savdoga ta'siri aniq kvantifikatsiya qilingan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, GATT va JST a'zolar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi o'rtacha 171 foizga, a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi savdo esa 88 foizga oshgan. Shuningdek, GATT/JST a'zolari o'rtasidagi savdoning rivojlanishi samarali bo'lsa-da, JST a'zolar o'rtasidagi savdoni rivojlantirishda GATTdan samaraliroq ekanligi aniqlangan. Bu natijalar, JSTning savdo rivojlanishiga ta'siri borasida yangi yondashuvni taqdim etadi va JSTning boshqa davlatlar bilan bo'lgan savdoni rag'batlantirishda ustunlik ko'rsatishini ko'rsatadi.

M.K. Tang va S.J. Wei (2009)⁵ esa JSTga a'zolikning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholab, ushbu jarayonning iqtisodiy o'sishga doimiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, JSTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiyoti o'rtacha 20 foizga oshgan, ayniqsa, bu ta'sir a'zolikdan keyingi dastlabki besh yil ichida yaqqol namoyon bo'ladi va yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2,5 foizga ortadi. Bu esa JSTga qo'shilishning nafaqat tashqi savdo, balki umumiy iqtisodiy faollik uchun ham rag'batlantiruvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

L. Allee va J.E. Scalera⁶ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, xalqaro tashkilotga a'zo bo'lishning foydasi davlatning siyosiy o'zgarishlarga tayyorlik darajasiga bog'liq. Tadqiqotda, xalqaro tashkilotga qat'iy a'zo bo'lish orqali mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy tizimi yanada barqaror va raqobatbardosh bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Shuning uchun, JSTga a'zolikning ijobiy natijalari, davlatning iqtisodiy siyosatga bo'lgan qat'iy yondashuvi bilan bevosita bog'liq.

Z. Drabek va M. Bacchetta⁷ o'zlarining tadqiqotlarida JSTga a'zolikning o'tish davrida mamlakatlarga foydali bo'lishi, bozor barqarorligini yaxshilash, korrupsiyani kamaytirish va davlat daromadlarini yo'qotmasdan boshqaruvni takomillashtirishga yordam berishini ko'rsatganlar. Ularning fikriga ko'ra, JSTga a'zolik davlatlarning ichki siyosatlarini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa davlatlarning to'lov balansi inqirozlarini samarali boshqarish imkonini yaratadi.

G.Felbermayr⁸ tadqiqotida JSTga a'zo bo'lishning o'zaro tovar ayirboshlash hajmini o'rtacha 40 foizga oshirishi, bu esa mamlakatlar o'rtasidagi savdo integratsiyasining kuchayishini anglatadi. Shuningdek, T.S. Eicherning⁹ fikriga ko'ra, JSTga a'zolik rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mintaqaviy savdo integratsiyasini

3 <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/57551-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-iyun-4>

4 Larch, M., Monteiro, J.A., Piermartini, R. and Yotov, Y., 2019. On the effects of GATT/WTO membership on trade: They are positive and large after all.

5 Tang, M.K., and Wei, S.J. (2009). "The value of making commitments externally: Evidence from WTO accessions". *Journal of International Economics* 78(2): 216–29.

6 Allee, T.L. and Scalera, J.E., 2012. The divergent effects of joining international organizations: Trade gains and the rigors of WTO accession. *International Organization*, 66(2), pp.243-276.

7 Drabek, Z. and Bacchetta, M., 2004. Tracing the Effects of WTO Accession on Policy-making in Sovereign States: Preliminary Lessons from the Recent Experience of Transition Countries. *World Economy*, 27(7), pp.1083-1125.

8 Felbermayr, G. and Kohler, W., 2010. Modelling the extensive margin of world trade: new evidence on GATT and WTO membership. *The World Economy*, 33(11), pp.1430-1469.

9 Eicher, T.S. and Henn, C., 2011. In search of WTO trade effects: Preferential trade agreements promote trade strongly, but unevenly. *Journal of International Economics*, 83(2), pp.137-153.



rivojlanirishga xizmat qiladi, bu esa global savdo tizimida o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi.

Richard Pomfretning¹⁰ «O'zbekiston va JST» nomli tadqiqotida esa, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi zarurati, iqtisodiy islohotlarga bo'lgan sodiqlikka bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Pomfret, agar O'zbekiston resurslar eksporti va himoyalangan ishlab chiqarishdan diversifikatsiyalangan raqobatbardosh iqtisodiyotga o'tishga jiddiy yondashsa, JSTga a'zo bo'lishi va bundan ijobiy foyda olish imkoniyatiga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuqoridagi tadqiqotlar JSTga a'zo bo'lishning savdo va iqtisodiy o'sish uchun sezilarli foydalar keltirishini, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi savdo integratsiyasining kuchayishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, JSTga a'zolikning samaradorligi, mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy islohotlarga bo'lgan yondashuvi va tayyorligiga bog'liq bo'lib, bu holat O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining muhim shartlarini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonning ko'p tomonlama kelishuvlarga a'zo bo'lishi davlat iqtisodiyoti uchun zarurligi tizimli qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv, ekspert va taqqoslama tahlil, analiz-sintez va boshqa zamonaviy usullardan foydalangan holda tadbiq etilgan.

Tahlil va natijalar

Jahon savdo tashkiloti (JST) a'zo mamlakatlarning savdo bilan bog'liq muammolarini hal etish yo'llarini muhokama qiladigan tashkilotdir. JSTning asosi uni kelishuvlari bo'lib, mazkur kelishuvlar tashkilot ishtirokchilari tomonidan imzolandi. JST 1947-yilda tuzilgan – GATTning davomchisidir. Bugungi kunda ushbu tashkilotga 166 ta davlat¹¹ a'zo hamda ushbu davlatlar jahon yalpi ichki mahsulotining 98 foizini¹² tashkil etadi. JST tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk obyektlari xalqaro savdosi sohasida “kamsitmaslik” tamoyili ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan tashkilot hisoblanadi. Ushbu tamoyil asosida a'zo davlatlar tomonidan o'z savdo hamkorlari, shuningdek, xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchilar orasida kamsitishga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanadi. Natijada JSTga a'zo har bir davlat xalqaro savdoning teng huquqli subyekti sifatida boshqa a'zolar bilan bir xil imkoniyatlar asosida tashqi iqtisodiy va savdo munosabatlarini olib boradi.

Mamlakatimiz uchun JSTga a'zo bo'lish mamlakat iqtisodiyotining salohiyatini yanada oshirish, O'zbekistonning global ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat zanjirida muhim bo'g'iniga aylanish imkonini beradi. Shuningdek, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish masalasi “O'zbekiston – 2030” strategiyasida eng muhim maqsadlardan biri sifatida o'rin olgan. Qisqa vaqt davomida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish maqsadida 2023-2024-yillar davomida 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, 40 ga yaqin hujjatlarni uyg'unlashtirishga erishildi. JSTga qo'shilish bo'yicha ishchi guruhlar uchrashuvlarining faollashgani natijasida bugungi kunda 30 dan ortiq davlatlar bilan ikki tomonlama faol muzokaralar olib borildi, shundan 11 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo'yicha hamma shartlar kelishib olindi¹³.

O'zbekiston 2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra JST ga a'zo bo'lgan 129 ta davlatlar bilan import, 137 ta davlat bilan eksport aloqalarini o'rnatgan¹⁴. 2023-yilda Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 62,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 12,0 milliard AQSh dollariga yoki 23,9 foizga oshgan. Savdo aylanmasining tarkibi quyidagicha: eksport hajmi 24,4 milliard AQSh dollarini, importi esa 38,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan¹⁵.

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a'zo davlatlar bilan savdo aloqalari so'nggi yillarda sezilarli rivojlanishga erishdi. Ayniqsa, JSTga a'zo davlatlar bilan import munosabatlari muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 2019-2023-yillar davomida O'zbekistonning JSTga a'zo davlatlar bilan import hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu o'zgarishlar, O'zbekistonning iqtisodiy aloqalarini global bozorlarda kengaytirish va diversifikatsiya qilishga bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi. 2023-yilda O'zbekistonning JSTga a'zo davlatlar bilan import hajmi 75,1% ga yetgan, bu esa mamlakatning tashqi savdosida ushbu davlatlarning ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi. 2019-yilda, JSTga a'zo bo'lgan davlatlardan import 71,5%ni tashkil etgan, 2020-yilda bu ko'rsatkich 73,6%ga oshdi. 2021 va 2022-yillarda import ulushi nisbatan barqaror bo'lib, 73,7% va 74%ni tashkil etdi. 2023-yilda esa bu ulush 75,1%ga yetdi. Bu ko'rsatkich JSTga a'zo davlatlarning mamlakatimiz tashqi savdosidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Quyidagi jadvaldan (1-jadval) ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonning import aloqalari 2019-2023 yillar davomida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Asosiy import davlatlari sifatida Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Janubiy Koreya kabi davlatlar, shuningdek, Turkiya, Germaniya, Braziliya, Hindiston, Fransiya va AQSh kabi rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar hamda iqtisodiy hamkorlar ko'rinadi.

2023-yilda O'zbekistonning import hajmi Xitoydan 11,34 milliard AQSh dollari, Rossiyadan 6,66 milliard

10 Richard Pomfret, 2020. Uzbekistan and the World Trade Organization. <https://iit.adelaide.edu.au/ua/media/726/uzbekistan-wto.pdf>

11 https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm

12 https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm

13 <https://parliament.gov.uz/news/iqtisodiyot-rivojiga-yanada-keng-yol-ochiladi>

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

15 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.



AQSh dollari, Qozog'istondan 3,07 milliard AQSh dollari va Janubiy Koreyadan 2,31 milliard AQSh dollari miqdorida bo'lgan. Ushbu davlatlar bilan import aloqalari juda katta ahamiyatga ega, chunki ular O'zbekistonning texnologiyalar, sanoat jihozlari, energetika mahsulotlari, xom ashyo va boshqa muhim resurslar bo'yicha asosiy hamkorlari hisoblanadi.

Xitoy va Rossiya kabi yirik iqtisodiyotlar bilan importning oshishi, ayniqsa, energetika, sanoat uskunalari, avtomobillar, elektronika, kimyo va qurilish materiallarining importi orqali amalga oshmoqda. Xitoyning importdagi ulushi 2023 yilga kelib juda sezilarli darajada o'sdi va 11,34 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu esa O'zbekistonning Xitoyga qaratilgan import siyosatini yanada mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi. O'zbekistonning import aloqalaridagi o'zgarishlar mamlakatning tashqi savdo siyosatidagi yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonning Respublikasining JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan import aloqalari 16 (mln AQSh doll.da)

No	Davlatlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Xitoy	5 108,63	4 501,22	4 923,42	6 427,71	11 339,10
2	Rossiya	4 137,69	4 173,78	5 462,24	6 230,69	6 660,63
3	Qozog'iston	1 942,01	2 097,35	2 742,18	3 243,51	3 068,54
4	Janubiy Koreya	2 664,82	2 099,37	1 841,06	2 299,78	2 313,47
5	Turkiya	1 326,41	1 087,27	1 717,58	1 738,54	1 897,74
6	Germaniya	927,53	759,37	693,51	1 071,30	985,50
7	Braziliya	115,50	89,17	348,23	553,37	652,28
8	Hindiston	330,57	423,03	460,57	655,06	649,11
9	Fransiya	140,51	132,51	259,53	271,67	595,00
10	AQSh	567,24	248,48	365,48	368,73	512,01
Jamiga nisbatan % da		71,5	73,6	73,7	74,0	75,1

O'zbekistonning JSTga a'zo davlatlardan import qilinadigan asosiy tovarlar:

Texnologiya va sanoat uskunalari: Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya va AQShdan import qilinadigan texnologik mahsulotlar, sanoat uskunalari va avtomobil sanoati mahsulotlari O'zbekistonning sanoat sohasida muhim o'rin tutadi.

Energiya resurslari: Rossiya va Qozog'istondan import qilinadigan neft, gaz, ko'mir va boshqa energiya resurslari O'zbekistonning energetika ehtiyojlarini qondiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari: Qozog'iston, Turkiya va Braziliyadan import qilinadigan oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kimyo va sanoat materiallari: Kimyo sanoati mahsulotlari, qurilish materiallari, polimerlar va boshqa sanoat materiallari O'zbekistonning turli sanoat tarmoqlarida ishlatiladi.

2019-2023 yillar davomida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan eksport aloqalari muhim o'zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu yillarda O'zbekistonning eksport hajmi va tarkibi sezilarli darajada o'zgargan, yangi bozorlar ochilgan va mavjud hamkorlar bilan aloqalar mustahkamlanib borgan.

Respublikamizning eksport dinamika nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan eksport aloqalari 2019-2023 yillar davomida o'zgarishlarga duch keldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning asosiy eksport hamkorlari Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya bo'lib qolmoqda. 2023-yilda Rossiyaga eksport hajmi 3,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, Xitoyga eksport hajmi 2,5 milliard AQSh dollaridan oshdi. O'zbekistonning boshqa muhim eksport bozorlariga Afg'oniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Fransiya, Pokiston va AQSh kiradi (2-jadval).

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.

2-jadval. O'zbekistonning Respublikasining JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan eksport aloqalari¹⁷ (mln AQSh doll. da)

No	Davlatlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Rossiya	2 531,87	1 485,76	2 088,24	3 151,10	3 495,68
2	Xitoy	2 528,75	1 937,05	2 529,09	2 632,00	2 486,56
3	Qozog'iston	1 392,96	908,42	1 178,38	1 407,55	1 417,05
4	Turkiya	1 217,63	1 018,99	1 692,38	1 643,45	1 263,33
5	Afg'oniston	616,96	776,74	667,48	756,28	857,24
6	Qirg'iziston	669,64	760,46	792,04	982,54	634,44
7	Tojikiston	327,56	405,12	501,90	522,12	608,30
8	Fransiya	214,74	89,72	21,28	72,62	400,44
9	Pokiston	97,94	98,55	130,07	185,16	269,27
10	AQSH	36,65	28,50	60,79	124,48	253,12
Jamiga nisbatan % da		55,2	49,7	57,8	59,4	48,0

Ko'rishimiz mumkinki, 2023-yilda JSTga a'zo davlatlar bilan eksportning umumiy hajmi 48 foizni bo'lsa-da, bu ko'rsatkichning turli davlatlar bo'yicha o'zgarishi O'zbekistonning tashqi savdo strategiyasining diversifikatsiyasini taqozo etadi. O'zbekistonning eksport ulushining pasayishi, global iqtisodiy holat, ayniqsa pandemiyaning ta'siri va bozorlaridagi talabning o'zgarishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, eksportning ko'pgina tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni kashf etish va mavjud aloqalarni mustahkamlash zarurati ortmoqda.

O'zbekistonning eksportining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari: O'zbekistonning eksporti ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga asoslangan, ayniqsa, paxta, meva va sabzavotlar, guruch, g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari. Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya va Afg'oniston kabi davlatlar O'zbekistonning asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qiladigan bozorlaridir.

To'qimachilik mahsulotlari: O'zbekistonning to'qimachilik sanoati ham eksport hajmi jihatidan muhim o'rin tutadi. Xitoy, Turkiya, Rossiya va AQSHga to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinadi.

Sanoat mahsulotlari va mashinasozlik: O'zbekistonning sanoat mahsulotlari, ayniqsa, qurilish materiallari va mashinasozlik mahsulotlari eksporti ham muhim o'rin tutadi. Rossiya, Qozog'iston va Turkiya O'zbekistonning sanoat mahsulotlari eksport qiladigan bozorlaridir.

O'zbekistonning YeOIIga a'zo bo'lgan davlatlar bilan import aloqalari 2019-2023 yillar davomida sezilarli o'sishni ko'rsatdi. 2023 yilda O'zbekistonning YeOIIga a'zo bo'lgan davlatlar bilan import hajmi 13,6 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. YeOIIga a'zo davlatlar bilan import aloqalari 2019 yilda jami importning 26,8 foizini tashkil etsa, 2023 yilga kelib bu ulush 27,8% ga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich mamlakatning tashqi savdo siyosatidagi o'zgarishlarni, YeOII bilan hamkorlikning rivojlanayotganligini va import ehtiyojlarining o'sishini aks ettiradi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonning Respublikasining YeOIIga a'zo bo'lgan davlatlar bilan import aloqalari¹⁸ (mln AQSh doll. da)

No	Davlatlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Rossiya Federatsiyasi	4 137,7	4 173,8	5 462,2	6 230,7	6 660,6
2	Qozog'iston	1 942,0	2 097,3	2 742,2	3 243,5	3 068,5
3	Belarus	283,9	219,5	319,2	411,6	525,8
4	Qirg'iziston	150,7	146,7	161,6	280,7	333,8
5	Armaniston	2,5	2,9	3,0	5,1	9,5
Jamiga nisbatan % da		26,8	31,4	34,1	33,1	27,8

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.



O'zbekistonning YeOIIga a'zo davlatlar bilan eksport aloqalarining umumiy hajmi va ulushi 2019-2023 yillarda o'zgarishlarni ko'rsatdi. 2023 yilda, umumiy eksportning YeOIIga a'zo davlatlar bilan ulushi 23,4%ni tashkil etdi. Bu, 2019 yildagi 26,6% dan pasayishning kuzatilgani, ammo 2022 yilga nisbatan (29,1%) eksport ulushining kamayganini bildiradi.

2019–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga (YeOII) a'zo davlatlar bilan import aloqalari izchil oshib borganini ko'rish mumkin. Rossiya Federatsiyasi bu davr mobaynida asosiy savdo hamkori bo'lib qolgan, uning ulushi 2019-yilda 4,1 mlrd AQSh dollaridan 2023-yilda 6,6 mlrd dollargacha oshgan. Qozog'iston bilan import hajmi ham ortgan bo'lsa-da, 2023-yilda biroz kamaygan. Belarus va Qirg'iziston bilan savdo hajmlarida barqaror o'sish kuzatilgan, ayniqsa Belarusdan import 2023-yilda 525,8 mln dollarga yetib, 2019-yilga nisbatan qariyb ikki baravar oshgan. Armaniston bilan savdo hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, u ham sezilarli o'sish ko'rsatgan. Shu bilan birga, YeOII mamlakatlari ulushi umumiy import hajmiga nisbatan 2021-yilda eng yuqori darajaga (34,1%) yetgan bo'lsa-da, 2023-yilda bu ko'rsatkich 27,8% gacha pasaygan, bu esa boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarining ham kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Bu o'zgarishlar, asosan, O'zbekistonning boshqa mintaqalarga bo'lgan eksport hajmi va diversifikatsiyasi bilan bog'liq. 2019 yilda YeOIIga a'zo davlatlarga eksport 26,6%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda bu raqam 21,2% ga tushdi. 2021 yilda eksport ulushi 24,8% ga ko'tarilgan va 2022 yilda 29,1% ga yetdi. 2023 yilda esa bu ko'rsatkich 23,4%ni tashkil etdi. O'zbekistonning YeOIIga a'zo davlatlar bilan eksport aloqalari 2019-2023 yillar davomida o'zgarib, bir qator o'sish va pasayishlarni ko'rsatdi. Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston O'zbekistonning asosiy eksport bozorlarini tashkil etmoqda (4-jadval).

4-jadval. O'zbekistonning Respublikasining YeOIIga a'zo bo'lgan davlatlar bilan eksport aloqalari¹⁹ (mln AQSh doll. da)

No	Davlatlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Rossiya Federatsiyasi	2 531,9	1 485,8	2 088,2	3 099,1	3 495,7
2	Qozog'iston	1 393,0	908,4	1 178,4	1 393,1	1 417,1
3	Qirg'iziston	669,6	760,5	792,0	978,4	634,4
4	Belarus	48,9	42,6	59,6	127,9	128,9
5	Armaniston	2,8	4,2	10,4	19,9	31,9
Jamiga nisbatan % da		26,6	21,2	24,8	29,1	23,4

Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdo aloqalari yildan yilga sezilarli tarzda o'zgarib bormoqda. Mamlakatda 1 yil davomida import hajmining qariyb 75 % i, eksportni o'rta 40-45 % i Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar bilan respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 25,4 % ni tashkil etgan. Shuni takidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Umuman olganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi eksport va importni global miqyosda rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratmoqda. 2023 yilda JSTga a'zo davlatlar bilan import ulushi 75,1%ni tashkil etdi, bu esa importning asosiy qismini tashkil etayotganini ko'rsatadi. Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi yirik iqtisodiyotlar bilan import aloqalarining rivojlanishi O'zbekistonning sanoat, texnologiya va iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shu bilan birga, JSTga a'zo davlatlar bilan eksport ulushi 48 % ni tashkil etgan bo'lib, bu rivojlanayotgan bozorlarni O'zbekistonning eksport mahsulotlari bilan ta'minlashga imkon beradi.

YeOIIga a'zo bo'lish O'zbekistonning regional hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. YeOIIga a'zo davlatlar bilan import ulushi 2023 yilda 27,8%ni tashkil etadi. Rossiya, Qozog'iston va Belarus kabi Yevroosiyo iqtisodiy integratsiya jarayonida ishtirok etuvchi davlatlar bilan savdo aloqalari mustahkamlanmoqda. Shuningdek, YeOIIga a'zo davlatlar bilan eksport 23,4%ni tashkil etdi va paxta, to'qimachilik va meva-sabzavotlar kabi asosiy mahsulotlar O'zbekiston eksportining tarkibida muhim o'rin tutadi.

19 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.



O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lish jahon bozorlarida diversifikatsiya qilish va texnologik rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xitoy va Rossiya bilan savdo aloqalarini mustahkamlash, turli sohalarda yuqori raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini yaratadi.

YeOllga a'zo bo'lish esa, asosan, regiondagi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va Rossiya, Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan savdoni kengaytirish uchun foydalidir. Paxta va meva-sabzavotlar kabi mahsulotlar uchun stabil bozorlar yaratadi.

O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lish uzoq muddatli strategik istiqbollari jihatidan afzalroq. Chunki:

JST a'zolari xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini oshiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ishonchli platforma yaratadi.

Mahsulot va xizmatlar diversifikatsiyasi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, YeOll bilan aloqalarni kuchaytirish va samarali savdo siyosati yuritish orqali mintaqaviy iqtisodiy manfaatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. YeOllga to'liq a'zo bo'lishdan ko'ra, ittifoq bilan imtiyozli savdo shartnomalarini saqlab qolish O'zbekiston uchun yanada moslashuvchan strategiya bo'lishi mumkin. Bu JST bilan hamkorlikni cheklamasdan mintaqaviy manfaatlarni olishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakatning xalqaro savdodagi ishtirokini kengaytirish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish imkonini beradi. Ko'p tomonlama savdo kelishuvlari orqali bojxona tariflarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi, mahsulotlar sifati va standartlariga qo'yiladigan talablarning uyg'unlashtirilishi ichki ishlab chiqaruvchilarning global bozorga chiqishini osonlashtiradi. Shu bilan birga, JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun muayyan xavf va majburiyatlarni ham yuzaga keltiradi, xususan, ichki bozorni himoya qilish va zaif tarmoqlarni bosqichma-bosqich isloh qilish zaruriyati tug'iladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqotda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

institutsional islohotlarni chuqurlashtirish - JST standartlariga mos qonunchilik va normativ-huquqiy bazani shakllantirish orqali xalqaro savdo tizimiga integratsiyani soddalashtirish zarur;

mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash - JSTga a'zo bo'lishdan keyingi davrda ichki ishlab chiqaruvchilarga texnik yordam, soliq imtiyozlari va eksportni rag'batlantirish choralari ko'rish lozim;

kadrlar salohiyatini oshirish - xalqaro savdo huquqi, texnik reglamentlar va muvofiqlik baholash tizimlari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilishi kerak;

hududiy diversifikatsiyani kuchaytirish - savdo aloqalarini nafaqat YeOll, balki boshqa mintaqaviy va global hamkorlar bilan ham kengaytirish JST doirasida raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;

monitoring va baholash tizimini yaratish - JSTga a'zo bo'lish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilish va baholab borish mexanizmlarini joriy etish lozim.

Umuman olganda, O'zbekistonning JSTga qo'shilishi mamlakat uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq bu jarayon izchil tayyorgarlik, puxta strategik yondashuv va davlat tomonidan faol ko'makni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston- 2030" strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son
2. Larch, M., Monteiro, J.A., Piermartini, R. and Yotov, Y., 2019. On the effects of GATT/WTO membership on trade: They are positive and large after all.
3. Tang, M.K., and Wei, S.J. (2009). "The value of making commitments externally: Evidence from WTO accessions". Journal of International Economics 78(2): 216-29.
4. Allee, T.L. and Scalera, J.E., 2012. The divergent effects of joining international organizations: Trade gains and the rigors of WTO accession. International Organization, 66(2), pp.243-276.
5. Drabek, Z. and Bacchetta, M., 2004. Tracing the Effects of WTO Accession on Policy-making in Sovereign States: Preliminary Lessons from the Recent Experience of Transition Countries. World Economy, 27(7), pp.1083-1125.
6. Felbermayr, G. and Kohler, W., 2010. Modelling the extensive margin of world trade: new evidence on GATT and WTO membership. The World Economy, 33(11), pp.1430-1469.
7. Eicher, T.S. and Henn, C., 2011. In search of WTO trade effects: Preferential trade agreements promote trade strongly, but unevenly. Journal of International Economics, 83(2), pp.137-153.
8. Richard Pomfret, 2020. Uzbekistan and the World Trade Organization. <https://iit.adelaide.edu.au/ua/media/726/uzbekistan-wto.pdf>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti: www.stat.uz URL
10. Jahon savdo tashkilotining rasmiy sayti: www.wto.org URL



11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
12. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm
13. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm
14. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/57551-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanma-si-2024-yil-yanvar-iyun-4>
15. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm
16. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm
17. <https://parliament.gov.uz/news/iqtisodiyot-rivojiga-yanada-keng-yol-ochiladi>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



